FALSAFA

Samanova Shaxlo Boxtiyarovna (falsafa fanlari doktori (DSc), Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi dotsenti; e-mail: shaxloboxtiyarova@gmail.com; ORCID: 0000-0003-4653-4553)

EKOLOGIK SIVILIZATSIYA INSONIYAT RIVOJINING YUQORI BOSQICHI SIFATIDA

Annotatsiya. *Inson turmush tarzini farovonlashtirish, barqarorlikka erishish maqsadida tinimsiz o'ylanadi, orzu qiladi, izlanadi, o'rganadi, mehnat qiladi. Bularning natijasi o'zlikni anglash, inson sifatida mohiyatini anglab yetishga qaratilgandagina inson o'zi uchun xavf-xatar tug'dirmaydi. Bu esa inson erishadigan eng yuqori sivilizatsiya bosqichidir. Insoniyat sivilizatsiyasi kelajak avlodga mushkul va ayanchli muammoni voris qilishi bilan masalani yanada dolzarblashtirish ehtimoli yuqoridir. Ushbu maqolada insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi bo'lgan ekologik svilizatsiyaning global muhitga ta'siri, ishlab chiqarish jarayonlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, ziddiyatlarni oldini olish va bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan hamda amaliy takliftavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, inson, tabiat, bag'rikenglik, insonparvarlik, taraqqiyot, atrof-muhit, ekologik inqiroz atrof-muhitni oqilona boshqarish, ekologik tajriba, antroposentrizm, ekologik etika, ekologik muvozanat, ekologik qadriyat, ekologik sivilizatsiya.*

Саманова Шахло Боктияровна (доктор философии (DSc), Мамунский университет, доцент кафедры «Общие профессиональные науки»; e-mail:shaxloboxtiyarova@gmail.com; ORCID:0000-0003-4653-4553)

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ЦИВИЛИЗАЦИЯ КАК ВЫСШАЯ СТАДИЯ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. *Человек постоянно думает, мечтает, ищет, изучает и работает, стремясь улучшить свой образ жизни и достичь стабильности. Только когда результат всего этого направлен на самопознание, на осознание своей сущности как человека, человек перестаёт представлять для себя опасность. Это высшая стадия цивилизации, которую может достичь человек. Велика вероятность того, что этот вопрос станет ещё более актуальным, поскольку человеческая цивилизация передаёт трудную и болезненную проблему следующему поколению. В данной статье анализируется влияние экологической цивилизации, нового этапа развития человечества, на окружающую среду, обострение отношений между человеком и природой в производственных процессах, приводятся научные и теоретические взгляды, направленные на предотвращение и разрешение конфликтов, а также практические предложения и рекомендации.*

Ключевые слова: *экология, человек, природа, толерантность, человечество, развитие, окружающая среда, экологический кризис, рациональное управление окружающей средой, экологический опыт, антропоцентризм, экологическая этика, экологическое равновесие, экологическая ценность, экологическая цивилизация.*

Samanova Shakhlo Bokhtiyarovna (Doctor of Philosophy (DSc) Ma'mun University, Associate Professor, Department of "General Professional Sciences" e-mail: shaxloboxtiyarova@gmail.com; ORCID: 0000-0003-4653-4553)

ECOLOGICAL CIVILIZATION AS THE HIGHEST STAGE OF HUMAN DEVELOPMENT

Annotation. *A person constantly thinks, dreams, searches, studies, and works in order to improve his lifestyle and achieve stability. Only when the result of all this is aimed at self-awareness, at realizing his essence as a human being, does a person not pose a danger to himself. This is the highest stage of civilization that a person can achieve. There is a high probability that the issue will become even more urgent as human civilization passes on a difficult and painful problem to the next generation. This article analyzes the impact of ecological civilization, a new stage of human development, on the global environment, the aggravation of relations between man and nature in production processes, scientific and theoretical views aimed at preventing and resolving conflicts, and practical suggestions and recommendations are given.*

Keywords: *ecology, man, nature, tolerance, humanity, development, environment, ecological crisis, rational environmental management, ecological experience, anthropocentrism, ecological ethics, ecological balance, ecological value, ecological civilization.*

Kirish (Introduction). XXI asrda sanoatning jadal rivojlanishi va urbanizatsiya o'sib borayotgan bir paytda iqtisodiy resurslarni tejash, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan vositalardan foydalanishning ahamiyati oshib bormoqda. Global ekologik inqirozning yana bir jiddiy omili ifloslangan muhit bo'lib, bunday sharoitda yashovchi odamlarda yuqumli kasalliklar tez-tez uchrashi o'z isbotini topgan. Buning

oldini olish uchun sog‘lom turmush tarzi ta'limini tashkil qilish, atrof-muhitni oqilona boshqarishning yangi usullari va yondashuvlariga urg‘u berish, atrof-muhitni muhofaza qilish milliy siyosatini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini amalga oshirish zarur. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ekologik sivilizatsiyaga bo‘lgan ehtiyoj va unga erishishda insonning tabiatga oqilona munosabatini shakllantiruvchi omillarni o‘rganishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ekologik sivilizatsiya konsepti turli olimlar tomonidan tavsiflangan bo‘lib, ba’zi olimlar ekologik sivilizatsiyaning mohiyatini ekologik muammolarga qarshi turish va ularni hal qilish harakatlarida qatnashish sifatida belgilashadi. Ba’zilar esa buni hozirgi ekologik inqirozlarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan mavjud tizimga ta’sir qiluvchi oddiy qo‘shimcha vosita sifatida ko‘rishadi. Ekologik sivilizatsiyaning radikal tarafdorlari esa uning global miqyosda rivojlanishi va jamiyatning har bir qismini o‘zgartirishi, xususan, odamlarning bir-biriga va tabiatga bo‘lgan munosabati, yashash tarzi, hatto ular intilayotgan maqsadlarini ham o‘zgartirishi kerak deb ta’kidlaydilar [16;14-b.].

Ayrim manbalarda ekologik sivilizatsiya ekologik madaniyat tushunchasi sifatida ham talqin qilinganligini ko‘rish mumkin [11;367–372 p.]. O.Balchindorjiyeva va D.Tsyrendojiyevalar mazkur koseptni quyidagicha ifodalashadi: “Ekologik sivilizatsiyaga o‘tish, qishloq xo‘jaligi sivilizatsiyasi va sanoat sivilizatsiyasiga o‘tish davrida bo‘lgani kabi, qaytarib bo‘lmaydigan global tendensiya sifatida qaraladi. Ekologik sivilizatsiyani rivojlantirish murakkab va mushkul loyihadir. Bu utilitar rivojlanish kontsepsiyasini rad etishga, inson va tabiatning uyg‘un rivojlanishining yangi kontsepsiyasini yaratishga, odamlarning ekologik ongini rivojlantirish va yaxshilashga asoslanadi” [2;28 p.] Xususan, ekologik sivilizatsiya faqat atrof-muhit va ekologiyaga xos bo‘lgan “sivilizatsiya” emas, balki ijtimoiy sivilizatsiya ham bo‘lib, u nafaqat biz yashayotgan ekologik muhitning uzluksiz takomillashuvida namoyon bo‘ladi, balki odamlarning xulq-atvorini doimiy ravishda yanada madaniylashuvida aks etadi.

G‘arb olimlaridan F.Magdoffning fikriga ko‘ra, “ekologik sivilizatsiya barqaror va ekologik jihatdan sog‘lom jamiyatga xos xususiyatlarga ega bo‘lishni anglatadi. Bunda insonning asosiy ehtiyojlari qondirilgandan keyin iqtisodiy o‘sishni to‘xtatish kerak bo‘ladi. Shuningdek, u hamkorlik, o‘zaro baham ko‘rish hamdardlik va o‘zaro yaqin munosabatlar kabi ijobiy insoniy fazilatlarni rag‘batlantirishi va mukofotlashi kerak. Mahalliy, mintaqaviy va global miqyosda atrof-muhitga hurmat va g‘amxo‘rlik saqlanishi lozim” [7;64 p.]. Demak, ekologik sivilizatsiyaning xususiyatlaridan biri shundaki, u atrof-muhitga zarar yetkazmasdan rivojlanish uchun zarur bo‘lgan turli komponentlarni birlashtirishda katalizator vazifasini bajaradi. Buning yorqin misoli moliya sektori bo‘lib, hozirda dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida banklar, sug‘urta va qimmatli qog‘ozlar bilan ishlovchi tashkilotlar ekologik sivilizatsiya soyasida umumiy yo‘riqnomalar asosida faoliyat yuritmoqda.

A.Hansonning ta’kidlashicha, “ekologik sivilizatsiya ba’zan ekologik taraqqiyot deb ham yuritiladi. Ekologik taraqqiyot ko‘pincha ekologik sivilizatsiyaning siyosiy jihatlari bilan bog‘liq bo‘ladi, chunki davlat rahbarlari o‘z harakatlarining fuqarolar uchun qanchalik qadrli ekanligini ko‘rsatish uchun ekologik sivilizatsiyaga yo‘l ochadilar” [5;16 p.]. Bu jarayon butun dunyoda allaqachon ekoturizm va eko-kompensatsiya sxemalari orqali amalga oshirilmoqda. Ekologik dunyoqarash, ekologik muhitga do‘stona munosabatda bo‘lishi xalq farovonligi va kelajagiga daxldordir. Bunda eng muhim va e’tiborga molik jihat ekologik muvozanatni saqlash, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un muhitni asrash va rivojlantirish uchun biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlarda ekologik binolar (yashil binolar), xususan, energiya tejovchi energiyalar bilan jihozlangan muassasalar, uylar, maktablar, binolar, savdo markazlari va boshqalarni barpo qilish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, inson va tabiatning uyg‘unlikda, birgalikda rivojlanishi butun jamiyat ishtirokini taqozo etadi. Har bir fuqaro bu masaladan chetda qolmasligi, butun xalq tabiatdagi hamma narsani doimo himoya qiladigan ekologik muhitni shakllantirish uchun faol harakat qilishi kerak.

Ekologik sivilizatsiya termini ba’zi adabiyotlarda “eko-sivilizatsiya” shaklida ham uchrasada, sanoat sivilizatsiyasidan keyingi hamda faqat yetarli darajada rivojlangan jamiyatlargina (davlatlargina) erisha oladigan sivilizatsion bosqichlardan biri sifatida talqin etiladi [8;195–203 p.]. Shuningdek, ekologik sivilizatsiya resurslar va atrof-muhitning barqaror rivojlanishini rag‘batlantirish uchun taklif qilingan kontsepsiya bo‘lib, uning asosiy va markaziy muammosi sanoat strukturasi, o‘sishi va iste’molini o‘z ichiga olgan inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri boshqarishdir. Hozirgi kunda Xitoy jamiyatida ekologik muammolarni hal qilish orqali barqaror rivojlanish g‘oyasini mustahkamlash uchun ekologik sivilizatsiya milliy strategiya sifatida belgilangan. “Ekosivilizatsiyani barpo etish” g‘oyasi birinchi marta 2007-yilda ilgari surilgan bo‘lib, keyichalik, 2018-yilda “Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasi”ga kiritilgan milliy

darajadagi rivojlanish strategiyasiga aylangan [6;303–313 p.].

Ekologik sivilizatsiyani barpo etish inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni ilmiy va tizimli boshqarishga qaratiladi. Ekologik sivilizatsiyani rivojlantirish bozor iqtisodiyoti va iste’molning uzluksiz o‘sishini ta’minlash uchun ifloslanish va atrof-muhit degradatsiyasining asosiy muammolarini hal qilishda fan va texnologiyadan foydalanishga asoslanadi.

Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ekologik sivilizatsiya bo‘yicha joriy tadqiqotlar asosan, ekologik shaharlardagi ekologik darajani baholashga, [4;142633 p.] suv eko-sivilizatsiyasi, [10;107351 p.] ekologik iqlim o‘zgarishi, [9;139000 p.] ekotizim masalasi [3;102890 p.] va boshqalarga qaratilganining guvohi bo‘lamiz.

Tarixan insoniyat ibtidoiy sivilizatsiya, qishloq xo‘jaligi sivilizatsiyasi, sanoat sivilizatsiyasini boshidan kechirgan va hozirda ekologik sivilizatsiya davriga qadam qo‘ymoqda. Insoniyat sivilizatsiyasining tarixiy taraqqiyoti va morfologik o‘zgarishi, avvalambor, odamlarning tabiat haqidagi tasavvuridagi bosqichma-bosqich o‘zgarishlar natijasidir [14;76 c.]. Kishilik jamiyatining rivojlanish bosqichlari nuqtayi nazaridan inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar to‘rt davrni bosib o‘tgan. Ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki bosqichida, ya’ni, ibtidoiy sivilizatsiya davrida insoniyatning mehnat unumdorligi nisbatan past bo‘lganligi sababli, odamlar tabiatga, tabiiy muhit va tabiiy resurslarga, ko‘p jihatdan, bog‘liq bo‘lgan. Odamlar tabiat xudolari dunyoni yaxshi ob-havo, yurt va xalq uchun tinchlik-osoyishtalik bilan asrashiga umid qilib, turli sehr-jodu, qurbonlik marosimlari orqali tabiatga sig‘inishgan va o‘z sadoqatlarini bildirishgan. Qishloq xo‘jaligi sivilizatsiyasi bosqichiga kelib, inson tabiat qonunlarini ma’lum darajada egallagan, quyosh chiqqanda mehnat qilgan, kun botganda esa dam olgan, ob-havo va undagi o‘zgarishlarga rioya qilib kun ko‘rgan, yo‘l topish uchun esa osmon va yulduzlarga tayangan [21;75 c.].

Umuman olganda, inson va tabiat o‘ziga xos uyg‘un munosabatlarga ega, lekin insoniyat fan-texnika rivojlanishining ekologik muhitga ta’sirini seza olmadi. XVIII asrda boshlangan sanoat inqilobi g‘arbiy kapitalistik mamlakatlarning ijtimoiy samaradorligini sezilarli darajada oshirdi, ammo kapitalizm va bozor iqtisodiyotining globallashuvi butun dunyo bo‘ylab ekologik zararning kengayishiga olib keldi. Fan-texnika taraqqiyoti insonning tabiatni zabt etish jarayonini tezlashtirdi.

Ekologik sivilizatsiyani rivojlantirish jarayonida nafaqat jamiyatning barcha qatlamlarini safarbar etish, balki tabiatning o‘z imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik sivilizatsiyani rivojlantirish fotovoltaik, shamol, vodorod, geotermal va suv toshqini kabi energiya tarmoqlarini jadal rivojlantirishni taqazo qiladi [22;17-b.]. Shu o‘rinda, ekologik sivilizatsiyani insoniyat rivojining yangi bosqichi, ya’ni sanoat sivilizatsiyasidan keyingi sivilizatsion shakl deyish mumkin, zero u insonning barkamol rivojlanishining obyektiv qonunlarini o‘zida mujassam etgan moddiy va ma’naviy yutuqlar yig‘indisidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi metodlariga tayanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ekologik sivilizatsiyani barpo etish o‘zbek xalqining barqaror rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon insonlar, tabiat va jamiyatning uyg‘un va barqaror rivojlanishini amalga oshirishda keng qamrovli ahamiyatga ega. Inson va tabiatning uyg‘unlikda yashashi odamlarning yaxshiroq hayotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishi kerak. Inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni targ‘ib qilish iqtisodiy taraqqiyot natijasida keltirilayotgan haqiqiy ekologik manfaatlarni his qilishdir.

Hozirda mamlakatimizdagi ekologik holatni barqarorlashtirish va yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar hali ham mustahkam emas. Shu sababli atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va nazorat qilishni yanada rag‘batlantirish uchun biz aniq, ilmiy va qonun bilan himoyalangan atrof-muhit qonun-qoidalariga rioya qilishimiz, ifloslanishni kamaytirishimiz va ekologiyani asrash faoliyatini rag‘batlantirishimiz kerak. Suv resurslari va suv ekologiyasini boshqarishni muvofiqlashtirish va rag‘batlantirish, tuproq ifloslanishining oldini olish va unga qarshi kurashishga jiddiy e’tibor qaratish, havo ifloslanishining asosiy bo‘g‘inlariga e’tibor qaratish, muammo va kamchiliklarni chuqur aniqlash, zarur choralar ko‘rish zarur [1;308–309-b.].

O‘zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy sharti xalqimizning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda jahon xalqlarining umumiy madaniyati, shu jumladan, ekologik madaniyatining namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganib, ulardan bizning sharoitimizga mos keladigan jihatlarini olish, ularni turmushga tatbiq etishning o‘ziga xos uslub va vositalarini ishlab chiqishdan iboratdir. Shu bilan birga, o‘z milliy an’analarimiz va qadriyatlarimizni saqlagan holda, o‘tmish ajdodlarimizdan bizlarga meros bo‘lib qolgan ekologik ma’naviy madaniyatimizni zamon talablariga mos hayot tarziga aylantirish

bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb, tabiiy zaruriyat ekani anglab yetilganda bu yo‘nalishda turli fan sohasi vakillarining hamkor faoliyati ijobiy natija beradi. Tabiiy ravishda, bu o‘ziga xos murakkab jarayondir.

Ekologik sivilizatsiyani barqaror rivojlantirishda, ekologik infratuzilmalarning utilizatsiyasi, monitoringi va nazoratini birlashtiruvchi maxsus tizimni barpo etish, infratuzilma tarmoqlarini shaharlardan qishloqlargacha kengaytirishga ko‘maklashish zarur. Mazkur jarayon qonun ustuvorligi asosida ekologiya va atrof-muhitni boshqarishni rivojlantirish, ekologik nazorat va huquqni muhofaza qilish samaradorligini oshirish, ekologik va atrof-muhit monitoringi tizimini takomillashtirish, favqulodda vaziyatlar, ularning oldini olish va nazorat qilishni qat’iy takomillashtirish asosida amalga oshiriladi [17;54-b.].

Olimlar tomonidan ekologik sivilizatsiya strategiyalari taklif qilingan bo‘lib, ularning mazmuni quyidagicha [12;1– 3 p.]:

a) qishloq xo‘jaligi hisobidagi yerlarni muhofaza qilish va rivojlantirish. Ma’lumki, o‘rmonlarning haddan tashqari kesilishi kuchli tuproq eroziyasiga olib keladi, shu bois mahalliy turizm industriyasini rivojlantirish, mevali ko‘chatlar ekish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga e’tibor qaratish zarur. Daraxt ekish va o‘rmonzorlarni barpo etishni targ‘ib qilish, ko‘kalamzorlashtirish darajasini oshirish, daryo to‘g‘onlari strukturasini mustahkamlash, daryolar va suv havzalarini chiqindilardan tozalash zarur;

b) yangi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish. Avtomobillardan chiqayotgan zaharli gazlar natijasida atmosfera havosining ifloslanishi yuzaga keladi. Ifloslanish muammosini hal qilish uchun yangi energiya manbalarini (elektromashinalar) keng qo‘llashni faol ravishda rag‘batlantirishi kerak. Elektromashinalarni sotib olgan odamlarga maxsus imtiyozlar berish, korxona-tashkilotlarni yashil energiyadan foydalanishga undash, ulardagi ichki sanoat tuzilmasini optimallashtirish, mahsulotlarni yaxshilash hamda odamlarning ekologik xabardorligini oshirish bu boradagi eng ratsional qadamlardan biridir;

d) odamlarning ekologik muhitni ongli ravishda himoya qilish bo‘yicha xabardorligini oshirish. Hukumat shuningdek, atrof-muhitni asrash borasida jamoatchilik fikrini shakllantirish, fuqarolarning ekologik savodxonligini oshirish, odamlarni atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatiga jalb qilish hamda birgalikda sifatli yashash muhitini barpo etishda o‘z ta’sirini ko‘rsatishi lozim.

Ekologik sivilizatsiyaning amaliyotga joriy qilinishi zamonaviy sivilizatsiyani inkor etadi va undan yuqoriroq o‘rinda turadi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy institutsional asoslarning yangi turlari bilan bog‘lanadi, bu orqali odamlar yanada mazmunli va barqaror hayot kechirish erkinligiga ega bo‘ladilar [14; 76-b.].

Umuman olganda, ekologik sivilizatsiya iqtisod va siyosatni ijtimoiy nazorat ostida rivojlantirishni talab qiladi, bunda:

1) demokratik jarayonlarda ekologik xavfsizlikni nazorat qilish va boshqarish;

2) shaxslarning muhim hayotiy ehtiyojlarini ta’minlash;

3) har kim o‘zining asosiy insoniy moddiy ehtiyojlarini qondirishi, undan ortig‘iga harakat qilmaslik;

4) ishlab chiqarish, yashash va transportda ekologik madaniyatga rioya qilish kabi omillar yetakchi o‘rinda turadi.

Shu o‘rinda yana bir strategik masala ekologik sivilizatsiya uchun mustahkam huquqiy asos yaratishdir. Hozirgi kunda O‘zbekiton Respublikasida ekologik qonunchilikni kuchaytirishga bo‘lgan sa’y-harakatlar keng amalga oshirilmoqda. Biroq ekologik sivilizatsiyani qurishda jamoatchilikning ishtiroki bilan bog‘liq bir qator muammolar ham yo‘q emas. Chunki insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan istak va xohishlarining tinimsiz o‘sib borishi, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishni istaganlar uchun yetarli ma’lumot va mos mahsulotlar mavjud emasligi kabi muammolar tug‘ilmoqda.

Bundan tashqari, fuqarolarning ekologik sivilizatsiyaga nisbatan fikrini, jumladan, shahar va qishloq aholisi o‘rtasidagi tafovutlarni, yoshlar va keksalar o‘rtasidagi yoki jinsga asoslangan farqlarni aniqlash qiyin. Biroq odamlar tabiat bilan, jumladan, ekoturizm bilan aloqa qilishni istashda davom etmoqda, insonlarning toza, xavfsiz oziq-ovqatga intilishlari kuchaymoqda. Ekologik sivilizatsiyaga yo‘naltirilgan ta’lim va kundalik hayotda ekologik jihatdan sog‘lom tanlov qilish imkoniyatlari, ekologik sivilizatsiya tashabbuslari natijasida hayot sifatining yaxshilanishi odamlarni ushbu yangi yondashuvni qabul qilishga ishontirishning yaxshi usuli hisoblanadi [18;31-b.].

Ekologik sivilizatsiya rivojlanishida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar muhim va markaziy o‘rinda turadi. Ekologik sivilizatsiya inson faoliyati va atrof-muhit o‘rtasidagi uyg‘unlik va muvozanatga urg‘u beradigan, barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan ijtimoiy modelni anglatadi [15;32-b.]. Mazkur konsepsiya inson farovonligi va tabiiy olam salomatligining o‘zaro bog‘liqligini namoyon qiladi.

Ekologik sivilizatsiya sharoitida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy jihatlariga quyi-

dagilar kiradi:

Uyg‘unlik va muvozanat [19;57-b.]. Ekologik sivilizatsiya inson va tabiatning uyg‘unlikda yashashini tashkil qilishga intiladi. Tabiiy resurslardan kelajak avlodlar ham barqaror foydalanishini ta’minlash uchun ulardan foydalanishning muvozanatini saqlash zarurdir.

Tabiatga hurmat. Tabiatning inson ehtiyojlari uchun foydali ekanligidan tashqari, uning ichki qiymatini tan olish zarur. Bu atrof-muhit va uning xilma-xil ekotizimlariga hurmat va e’tibor hissini tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.

Barqaror rivojlanish. Ekologik sivilizatsiya inson taraqqiyoti atrof-muhitning tanazzulga uchrashi hisobiga bo‘lmasligi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. U kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur yetkazmasdan hozirgi ehtiyojlarni qondiradigan barqaror amaliyotlarni talab qiladi.

Biologik xilma-xillikni saqlash. Ekologik sivilizatsiya biologik xilma-xillikni himoya qilish va saqlash bo‘yicha faol harakatlarni olib borishni o‘z ichiga oladi. Turlarning xilma-xilligi va ekotizimlarini saqlab qolish tabiiy dunyoning barqarorligi va osoyishtaligini saqlash uchun muhimdir.

Atrof-muhitni ratsional boshqarish [13;122-b.]. Inson atrof-muhitning boshqaruvchisi, tabiiy resurslarni boshqarish va himoya qilish uchun javobgardir. Bu ifloslanishni, yashash joylarini yo‘q qilishni va atrof-muhitga zarar yetkazishning boshqa shakllarini minimallashtiradigan amaliyotlarni bajarishni o‘z ichiga oladi.

Aylanma iqtisodiyot [20;477-b.]. Resurslardan qayta foydalanish, qayta ishlash va qayta tiklanadigan aylanma iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik sivilizatsiyadagi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ajralmas qismidir. Ushbu yondashuv chiqindilarni minimallashtiradi va inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini kamaytiradi. Hozirgi kunda ko‘pgina mamlakatlar va tashkilotlar chiziqli iqtisodiyotdan (olish, bajarish, tasarruf etish) aylanma iqtisodiyotga o‘tish muhimligini tan olishmoqda. Hukumatlar, korxona-tashkilotlar resurslar samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va materiallarni qayta ishlatishni rag‘batlantirish strategiyalarini amalga oshirishmoqda.

Aylanma iqtisodiyot tamoyillarini siyosiy va huquqiy sohalarga integratsiya qilish ham milliy, ham xalqaro darajadagi hamkorlik tashabbuslarini aylanma iqtisodiyotni qabul qilishlarini tezlashtiradi. Ushbu tashabbuslar ko‘pincha hukumatlar, biznes va nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni o‘z ichiga oladi.

Ekologik toza texnologiyalar. Texnologik innovatsiyalar inson va tabiat o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va qabul qilish atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirish va barqaror hayotni rivojlantirishga yordam beradi. Texnologiyaning rivojlanishi odamlar va tabiat o‘rtasidagi ham ijobiy, ham salbiy munosabatlarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashda davom etmoqda. Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini sezilarli ko‘paytirish, energiya uzilishlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish va qayta tiklanadigan manbalarning barqarorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari bo‘yicha innovatsiyalar, jumladan, chiqindilarni energiyaga aylantirish tizimlari chiqindilarni utilizatsiya qilishning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.

Ekologik ta’lim. Ekologik tamoyillar haqida bilimlarni oshirish, ogohlikni rivojlantirish va ularni chuqur tushunish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim orqali odamlar va jamiyatlarga atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tiklash jarayonlariga ongli va mas’uliyatli ravishda hissa qo‘shish imkoniyati yaratiladi [14; 27-b.]. Ekologik ta’lim barqaror amaliyotlarni targ‘ib qilish va ekologik sivilizatsiyani rivojlantirishga yordam beradigan tafakkurni shakllantirishning hal qiluvchi tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda. Ta’lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat organlari o‘quv dasturlari barqarorlik, tabiatni muhofaza qilish va aylanma iqtisodiyot bilan bog‘liq mavzularni o‘z ichiga olgan holda rivojlanmoqda. Bunda turli targ‘ibot kompaniyalari va dasturlari aholini atrof-muhit muammolari to‘g‘risida xabardor qilish va harakatga undashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy media platformalari va onlayn resurslar axborotni tarqatish va kengroq auditoriyani jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy va ekologik muammolarning o‘zaro bog‘liqligini e’tirof etgan holda ekologik ta’lim doirasida ekologik adolat va ijtimoiy mas’uliyatga e’tibor berish zarur.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa tarzida ta’kidlash joizki, ekologik sivilizatsiyaning mohiyati haqida yakuniy, hamma tomonidan tasdiqlangan tavsif mavjud emas. Biroq bu masala bo‘yicha amalga oshirilayotgan bahs-munozaralar va sa’y-harakatlarning kelajakdagi ekologik farovonlikka ijobiy hissa qo‘shayotgani ko‘rinib turibdi. Ekologik sivilizatsiya inson va tabiiy ekologiyaning birgalikda rivojlanishiga asos bo‘lib, insoniyatni global ekotizim doirasidagi jarayonlar va tuzilmalar majmuasi sifatida tavsiflaydi.

Ekologik sivilizatsiya insoniyatning tabiatdagi o‘rnini, koinotning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlarida, shu jumladan, global ekotizimda ishtirok etishini o‘z ichiga oladi. Shu bois ekologik sivilizatsiya nima ekanligini yana bir bor tahlil qilish, inson bo‘lish nimani anglatishini qayta ko‘rib chiqish va tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga asoslangan yangi insonparvarlik tushunchasini yaratish kerak.

Ekologik sivilizatsiya odatiy subyektivlik tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bu yerda tabiiy dunyo va odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, inson va tabiat, ayniqsa ekosfera o‘zaro qanday bog‘langanligi muhim hisoblanadi. Bularning barchasi ekologik ongni o‘stirishni, insoniyatning ona tabiatga, o‘ziga va ekologik borliqqa bo‘lgan qarashi va munosabatini o‘zgartirishni talab qiladi.

Ekologik sivilizatsiya ekogumanizm bilan uyg‘unlashadi, ya’ni insonning o‘ziga nisbatan va boshqa mavjudotlarga nisbatan dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga nisbatan tenglik, erkinlikning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Ekologik sivilizatsiya inson va tabiiy hayot ekologiyasiga asoslanadi va iqtisodiyotning globallashuviga, mintaqaviylashuv jarayonlarining kuchayishiga va ko‘p qutbli dunyo tartibiga qarshi turish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023, 308–309-betlar.

(2). Balchindorzhieva O.B., Tsyrendorzhieva D.S. Harmonious Society and Ecological Civilization. The concepts’ relationship. SHS Web of Conferences. EDP Sciences, 2016, t. 28, p. 01011.

(3). David Weaver, Chuanzhong Tang, Yanzhi Zhao. Facilitating sustainable tourism by endogenization: China as exemplar, Annals of Tourism Research, Volume 81, 2020, 102890, ISSN 0160-7383, https://doi.org/10.1016/j.annals. 2020.102890.

(4). Fanxin Meng, Jinling Guo, Zhanqiang Guo, Jason C.K. Lee, Gengyuan Liu, Ning Wang. Urban ecological transition: The practice of ecological civilization construction in China, Science of The Total Environment, Volume 755, Part 2, 2021, 142633, ISSN 0048-9697, https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2020.142633.

(5). Hanson A. Ecological civilization in the people’s republic of China: values, action, and future needs. – 2019, 16 p. / https://www.adb.org/sites/default/files/publication/545291/eawp-021-ecological-civilization-prc.pdf

(6). Jon Naustdalslid (2014) Circular economy in China – the environmental dimension of the harmonious society. International Journal of Sustainable Development & World Ecology, 21:4, 303-313, DOI: 10.1080/13504509.2014.914599

(7). Magdoff F. Harmony and ecological civilization. Monthly Review. 2012, t. 64, №.2.

(8). Mette Halskov Hansen, Hongtao Li, Rune Svarverud. Ecological civilization: Interpreting the Chinese past, projecting the global future, Global Environmental Change, Volume 53, 2018, pages 195–203, ISSN 0959-3780, https://doi.org/10.1016/j.gloenvcha.2018.09.014.

(9). Muhammad Yousaf Raza, Boqiang Li. Decoupling and mitigation potential analysis of CO2 emissions from Pakistan's transport sector, Science of The Total Environment, Volume 730,2020,139000,ISSN 0048-9697, https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2020.139000.

(10). Pei Tian, Huaqing Wu, Tiantian Yang, Faliang Jiang, Wenjie Zhang, Zhanliang Zhu, Qimeng Yue, Muxing Liu, Xinyi Xu. Evaluation of urban water ecological civilization: A case study of three urban agglomerations in the Yangtze River Economic Belt, China, Ecological Indicators, Volume 123, 2021, 107351, ISSN 1470-160X, https: //doi.org/10.1016/j.ecolind.2021.107351.

(11). Vasiyev M.P., Razmanova S.V., Steblyansky N.V. (2021). A model for assessing the degree of coordination of the “Energy system – Economy – Environment” (3E) in Heilongjiang province, China. In T.S. Krestovskikh (Ed.), Communications. Society. Spirituality, 2021. XXI International Scientific and Practical Conference (pp. 367–372), Ukhta, UGTU.

(12). Zuo C. (2019). The Historical Evolution of Chinese Communist Party’s Ecological Thought in the Seventy Years of New China Review and enlightenment. Journal of Central South University (Social Science Edition), 6, 1-3. (In Chinese.

(13). Боголюбов С.А. Реализация экологической политики посредством права: монография. М., Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации: ИНФРА-М, 2015, с. 122.

(14). Букина Е.Е. Философский анализ этических оснований технонауки в ракурсе проблемы природы человека. Диссертация ... кандидата философских наук, Томск, 2021, с .27.

(15). Вирт Л. Человеческая экология. Вирт Л. Избранные работы по социологии. Москва, ИНИОН РАН, 2005, с. 32.

(16). Джуракулов Х.А. Замонавий экотуризм ривожида шахс экологик ҳуқуқий онгини юксалтириш зару-рияти. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати, Самарканд, 2022, 14-бет.

(17). Курбанбаев К. Массовая культура как источник опасности духовной безопасности народа. К. Курбанбаев, Э.Шарипова, Ж.Кедейбаева. Материалы Международной научно-практической конференции «Человек в современном мире: идентичность и межкультурная коммуникация», “Дюссельдорф”, 2019, с. 54.

(18). Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Тошкент, “Иқтисод-молия”, 2012, 31-бет.
(19). Саломова Х.Ю. Меъёрнинг фалсафий моҳияти ва амалий аҳамияти. Бухоро, “Дурдона”, 2018, 57-бет.
(20). Фихте Х. Опыт о пубертате. Тверь, “Колонна”, 2021, с. 477.
(21). Фрэнсис Бэкон. Новый Органон. Пер. анг. С.Красильщикова. М., РИПОЛ Классик, 2021, с. 75.
(22). Яздонов З.Ш. Ўзбек халқ экологик маданияти анъаналарини тиклаш ва ривожлантириш тенденциялари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Самарқанд, 2019, 17-бет.

Omonov Bahodir Nurillayevich (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti professori, falsafa fanlari doktori (DSc),
Nomozov Xurshid Shavkat o‘g‘li (ATMU dotsent v.b., f.f.f.d. (PhD)

VIRTUAL TARMOQ JAMOALARI: FALSAFIY VA ANTROPOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot virtual tarmoq jamoalarini falsafiy va antropologik nuqtayi nazardan kompleks tahlil qiladi. Internet orqali shakllanadigan jamoalarning ontologik, epistemologik, axloqiy va madaniy jihatlari yoritiladi. Virtual tarmoq jamoalari nafaqat texnologik yangilik, balki insoniyat evolutsiyasining muhim bosqichidir. Ular insonning o‘zini va dunyoni tushunish, munosabatlar o‘rnatish, jamiyat qurish qobiliyatini yangi, oldin mavjud bo‘lmagan sharoitda sinab ko‘rish imkoniyatini masalalari ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *virtual jamoalar, raqamli antropologiya, internet-falsafa, simulakr, giperhaqiqat, postgumanizm, gibrid madaniyat, identifikatsiya, axloq, kollektiv aql, virtual ritual, raqamli hokimiyat.*

Омонов Баходир Нуриллаевич (Шахрисабзский государственный педагогический институт, доктор философских наук (DSc), профессор),
Номозов Хуршид Шавкат угли (АТМУ и.о. доцента, д.ф.ф.н. (PhD)

ВИРТУАЛЬНЫЕ СЕТЕВЫЕ СООБЩЕСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ И АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *Данное исследование представляет собой комплексный анализ виртуальных сетевых сообществ с философской и антропологической точек зрения. Освещаются онтологические, эпистемологические, этические и культурные аспекты сообществ, формирующихся через Интернет. Виртуальные сетевые сообщества – это не только технологическое новшество, но и важный этап в эволюции человечества. В исследовании научно раскрыты и обоснованы вопросы возможности проверки способности человека понимать себя и мир, устанавливать отношения, строить общество в новых, ранее не существовавших условиях.*

Ключевые слова*: виртуальные сообщества, цифровая антропология, интернет-философия, симулякр, гиперреальность, постгуманизм, гибридная культура, идентификация, этика, коллективный разум, виртуальный ритуал, цифровая власть.*

Omonov Bahodir Nurillaevich (Shahrisabz State Pedagogical Institute Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor),
Nomozov Khurshid Shavkat o‘g‘li (ATMU Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)

VIRTUAL NETWORK COMMUNITIES: PHILOSOPHICAL AND ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS

Annotation. *This study provides a comprehensive analysis of virtual network communities from philosophical and anthropological perspectives. The ontological, epistemological, ethical, and cultural aspects of communities formed through the Internet are highlighted. Virtual network communities are not only a technological innovation but also an important stage in human evolution. The research scientifically explores and substantiates the issues of testing human ability to understand oneself and the world, establish relationships, and build society in new, previously non-existent conditions.*

Keywords: *virtual communities, digital anthropology, internet philosophy, simulacrum, hyperreality, posthumanism, hybrid culture, identification, ethics, collective intelligence, virtual ritual, digital power.*

Kirish. XXI asr insoniyat uchun texnologik tafovut asri bo‘lib, unda mavjudlikning o‘zi yangicha shakllar va ifodalanish yo‘llarini topmoqda. Axborot texnologiyalarining portlashsimon rivojlanishi nafaqat ish, ta’lim yoki aloqa usullarini o‘zgartirdi, balki insonning o‘ziga xos ontologik holatini tubdan qayta shakllantirish jarayonini boshlab berdi. Turli xil raqamli platformalarda – ijtimoiy tarmoqlarda, forumlarda, onlayn o‘yinlarda, professional ham jamiyatlarda paydo bo‘layotgan virtual jamoalar bugungi kunning eng ahamiyatli ijtimoiy hodisalaridan biriga aylanmoqda.